

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049579>

BOBUR ASARLARIDAGI SOF TURKIY SO‘ZLARNING LEKSIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Shamsudinova Iqbol

Ilmiy rahbar

Fozilova Gulnora

Abdullayeva Shahnoza

TerDu, o‘zbek filologiyasi fakulteti talabalari

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida keltirilgan turkiy so‘zlarning leksik va morfologik tahlili amalga oshirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** “Boburnoma”, turkiy so‘z, forsiy so‘z, leksik, morfologik.*

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida mumtoz matnlar asosida ko‘plab tilga va badiiy adabiyotga oid qimmatli ma’lumotlar aniqlanganligi bilan muhim ahamiyatga egadir. “Boburnoma” asarida turli o‘lkalarning el – ulusi, ularning tarixi, etnografiyasi, tili singari behisob sohalarda ma’lumotlar jamlagan. Asarda qo‘llanilgan so‘zlarning ko‘pgina qismi arab va forsiy tildan o‘zlahsgan, sof turkiy so‘zlar nisbatan kamroq. Siz tanlash va ularni qo‘llash Bobur uslubida alohida o‘rin tutadi. Adib ba’zi o‘rinlarda shunday siz va iboralarni qo‘llaydiki, uning ma’nosini ijodkorning o‘sha damdagi kayfiyatidan yoki uning ayrim odamlar va hodisalarga bo‘lgan munosabatidan qidirishga to‘g‘ri keladi. “Boburnoma” asari Boburni faqatgina turkiy tilni emas fors tilini ham xuddi shunday mukammal bilishini ko‘rsatib beradi.

1. Xo‘jand bila Konibodom orasida bir dasht tushubtur. Hamisha bu dashtga el borur.

{dasht} – biyobon, birlik shaklidagi ot.

{el} – bir joyning odamlari, aholisi, xalqi, umuman, ko‘pchilik odam, xaloyiq. O‘z lug‘aviy ma’nosidan ko‘plik ekanligi anglashilib turadi, ot so‘z turkumi.

2. Burunlar ko‘p ichar edi, so‘ngralar haftada bir – ikki qatla suhbat tutar edi.

{Burunlar} – ravishdosh, ilgari, ilgarigi, o‘tgan vaqtlarda. Bu so‘z hozirgi adabiy tilda unchalik ham faol emas.

{qatla} – kam qo‘llaniladi. Marta, karra ma’nosida ishlatiladi. (10 – bet)

3. Xon yurtida ekanda qo‘rg‘ondag‘ilar firib bila kishi yuborib, dedilarkim, kecha bila G‘ozi Oshiqon tarafiga kelingkim, qo‘rg‘onni berurbiz. (39 – bet)
{xon} – tarixiy so‘z. Turkiy va mo‘g‘ul xalqlari hukmdori unvoni. Bu so‘z dastlab qan tarzida talaffuz qilingan, keyinchalik so‘z boshlanishidagi q undoshi x undoshiga almashgan.
qan – xan.
{yurt} – ma‘lum xalq, aholi yashab turgan joy.
Sinonimlari: yurt, mamlakat, vatan.
XIV asr oxiri XV asr boshlarida yu deb xon qarorgohidagi zodagonning joyi yoki xonning qarorgohi joylashgan yerga aytilgan. “Yu” atamasining uy, turar joy, manzilni anglatuvchi ahamiyati kuchaygan.
4. Qarshi mo‘g‘ulcha ottur, Farzonai mo‘g‘ul tila bila qarshi derlar. (46 – bet).
{ot} – ot qo‘ymoq, nom bermoq, atamoq.
Sinonimlari: unvon, mansab, nom.
- Zot, urug‘, shuhrat, dong, nomus, g‘urur ma‘nolarida ham qo‘llaniladi.
5. Ul fursatga bir martaba behuzur bo‘lib, yaxshi bo‘lub edim. (50 – bet)
{ul} – ko‘rsatish olmoshi, badiiy adabiyotda ko‘proq ul shaklida qo‘llaniladi.
{behuzur} – (be+huzur) bezovta, halovatsiz, behuzur bo‘l fe‘li tarkibida ishlatiladigan bu kesimlik “yo‘q” ma‘nosini ifodalaydigan tojikcha “be” old qo‘shimchasini qo‘shish yo‘li bilan hosil qilingan.
{yaxshi} – ijobiy sifatga ega, kishiga yoqadigan, ma‘qul bo‘ladigan. Bu sifat qadimgi turkiy tilda ham didga, xohishga mos, ma‘qul bo‘l ma‘nosini anglatgan “yaq” fe‘lining “biroz” ma‘nosini ifodalovchi -(i)sh qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan shaklidan -i qo‘shimchasi qo‘shilgandan keyin ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan, -sh undoshi ta‘sirida uning oldidagi -q undoshi -x undoshiga almashgan.
(DLT III) o‘zbek tilida -a unlisi -ä unlisiga almashgan, -i unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan:
(yaq+ish= yaqish) + i = yaqishī – yaqshi – yaxshi – yäxshi.
6. Boysung‘ur mirzoning bu voqeasidan so‘ng Sulton Ahmad qorovul Kuchbekning otasi, og‘a – inisi, ko‘ch va mutaaliqlari bila Qorategin viloyatidin chiqib bizni deb keldi. (64 – bet)
{qorovul} – (qo – ro – vul) biror ob‘yektini qo‘riqlovchi qurolli shaxs.
Sinonimlari: pospon, soqchi.
{ota} – farzandli, bola – chaqali er kishi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu so‘z “ata” tarzida talaffuz qilingan, o‘zbek tilida bu so‘z boshlanishidagi -a unlisi -â unlisiga, oxirdagi -a unlisi – ä unlisiga almashgan.
ata – âtä

{og‘a} – eng katta aka. Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi “uzoq yasha” ma’nosini anglatgan -aq fe’lidan -a qo‘shimchasi bilan yasalgan. Aq + a = aqa keyinchalik ikki unli oralig‘idagi -q undoshi - g‘ undoshiga almashgan. O‘zbek tilida so‘z boshlanishidagi -a unlisi -â unlisiga, so‘z oxiridagi -a unlisi -ä unlisiga almashgan: aqa - ag‘a – âg‘ä.

{ini} – uka, o‘zidan yosh er kishiga, uni o‘ziga yaqin ko‘rib murojaat etish shakli.

7. Bu jihattin xazrat xotirig‘a nima kelmish. Mullo bobo mening sari boqib ishorat qiladur.

{bobo} – otaning yoki onaning otasi “buva”. Qadimgi turkiy tilda ba – ba tarzida talaffuz qilingan bu so‘z asli onaning otasi ma’nosini anglatgan, keyinchalik ma’noda kengayish voqe bo‘lib, otaning otasi ma’nosini ham anglatga boshlagan. Qadimgi turkiy tildayoq – a unlisining cho‘ziqlilik belgisini yo‘qotgan. O‘zbek tilida -a unliari -â unliariga almashgan: ba:ba – baba – bâbâ.

So‘zlashuv nutqida bu so‘z “büva” tarzida aytiladi.

8. O‘zbekning urushta bir ulug‘ hunari ushbu to‘lg‘amadur, xech urushi to‘lg‘amasiz bo‘lmas. (81 – bet)

{urush} – qabilalar, davlatlar yoki ijtimoiy guruhlar o‘rtasida uyushgan qurolli kurash.

Paronimi: urish.

{ulug‘} – egallagan o‘rni, hajmi g‘oyat yirik, juda katta, ulkan, buyuk.

Antonimi: beqadr.

Sinonimi: qudratli, buyuk.

9. Bu mahalda Shayboqxon sulh so‘zini oraga soldi. Agar bir tarafdin umidvorliq bo‘lsa, yo zahira bo‘lsa, sulh so‘ziga kim quloq solur edi. (85 – bet)

{sulh} – kelishuv

Antonimi: kelishmovchilik, ziddiyat, tafovut.

Sinonimi: bitim, kelishuv.

{umidvorlik} – umidvor holat, umidli holatda bo‘lish.

10. O‘lim dag‘dag‘asi xotirdin rof bo‘lib, ochlik shiddati eldin daf bo‘ldi.

Umrumuzda muncha farog‘at qilmaydur edik. (86 – bet)

{dag‘dag‘a} – hayajon, qo‘rqinch.

dag‘ + da + g‘a

Vahima yoki shovqin solib qilingan do‘q, po‘pisa.

{ochlik} – biror yeguliksiz och – nahor qolish.

Och + lik

Ot so‘z turkumi.

Sinonimi: to‘qlik.

{muncha} – bu qadar, bunchalik.

mun + cha

-b undoshining fonetik o'zgarishi natijasida -m undoshiga aylanishi.

11. Xonning bu yurushi befoydaroq yurush edi, qo'rg'on olmoq va yog'iy bosmoq yo'q. (92 – bet)

{befoyda} – (be + foyda) manfaati, nafi yo'q, foyda daromad keltirmaydigan, foydasiz.

be + foy + da – sifat

Antonimi: kerakli, foydali.

{yog'iy} – dushman, qadimgi davrda asosan, Bobur zamonida dushmanga nisbatan “yog'iy” so'zi ishlatilgan.

yo + g'iy – ot

Antonimi: birodar, do'st – yor

12. Kichik xon dadam ham yigirma to'rt, yigirma besh yildurkim, muloqot qilmaydurlar, men ham ularni ko'rgan emasman. (92 – bet)

{dada} – ota, padar.

da + da – ot

Dada kelib chiqishi da + adadan ma'nosi katta ada, ya'ni buva. Ushbu so'zda -da uzvi bo'lmasada, unda “katta, ulug'” ma'nosi ham ifodalanmaydi. Demak kattalik ma'nosi ayni uzvi orqali anglashilayotgani tabiiy. Ba'zi aqrobolik otlaridagi -da uzvida ham “katta, ulug'” ma'nosi mujassam.

13. Bu ayyomda bovujudkim muntoq sho'r va fitna qoyim bo'ldi, Tanbal hanuz o'ziga kelturmay. (95 – bet)

{ayyom} – kun, biror kun nishonlanadigan bayram.

ay + yom = ot

Sinonimi: bayram.

{muntoq} – ko'rsatish olmoshi.

Varianti: bunday

{sho'r} – 1. tuzli, tuzi ko'p. 2. Iztirob, g'alayon, azob – uqubat.

14. Xoqon arig'i ulug' shoxjo'ydir va chuqur oqar, har yeridan kechib bo'lmas, tengru rost kelturdi, bu ariqning bir guzarig'a to'ppa – to'g'ri o'q kelduk.

{xoqon} – qadimgi turkiy xalqlar va mo'g'ullar hukumatida yirik davlat boshliqlarining eng oliy unvoni va shu unvonni olgan shaxs.

Xo + qon = ot

{arig} – sug'orish shaxobchalarining Turkistonda ishlatiladigan mahalliy nomi. Ariq so'zi “ayiriq” so'zidan olingan.

A + rig = ot

{oqar} – oqmoq, oqadigan.

O + qar = sifat

15. Ibrohimbekning oti zaif edimu yo yaraluqmu edi, manga dedikim, otim xarobdur. (102 – bet)

{zaif} – kamquvvat, kasal, jismonan quvvati kam, nimjon, kuchsiz.

Za + if = sifat

Antonimi: baquvvat, kuchli.

Sinonimi: nimjon, bequvvat, darmonsiz.

{xarob} – vayron bo‘lish, halokat, moddiy va ma’naviy jihatdan ahvoli tang.

Xa + rob = sifat

16. Biz puli ravondan o‘tub edukkim, puli ravonning shaxr tarfig‘a yog‘iy kishisi yetti, Qosimbekning o‘g‘li Hamzaning onasining otasi Banda Alibek Ibrohimbekka qichqirib aytadurkim doim taassuf va lofing bor erdi. (103 – bet)

{ona} – xotin kishi o‘z tuqqan bolasiga nisbatan. Qadimgi turkiy tilda ham bunday ma’noni anglatgan bu so‘z “ana” tarzida talaffuz qilingan. O‘zbek tilida bu so‘z boshlanishidagi -a unlisi – â unlisiga, so‘z oxiridagi -a unlisi -ä unlisiga almashgan.

ana – ânä. O + na = ot

{qichqiriq} – juda kuchli, jarangli ovoz chiqarmoq, baqirmoq.

Sinonimi: baqirmoq, hayqirmoq, shang‘illamoq.

Qich + qir + moq = fe‘l

17. O‘zumni o‘lumga qaror berdim. O‘shal bog‘da bir suv oqib keladur edi, vizu qildim, ikki rakat namoz o‘qudum, boshimni munojotqa qo‘yub, tilak tiladim edimkim ko‘zum uyquga boribtur. (107 – bet)

{o‘zum} – o‘zlik olmoshi.

Qadimgi turkiy tilda o‘zlik olmoshlari ikkita öz va kentü-kendü. Öz aslida “jon” degani. U “kishi, shaxs, odam” ma’nosini ham bildiradi.

{tilak} – biror istak, niyat bilan, nimanidir tilab aytilgan duo.

Ti + lak = ot

{uyqu} – tirik organizmda fiziologik sokinlik holatida bo‘l ma’nosini anglatgan -uyu fe‘lidan -qu qo‘shimchasi bilan yasalgan, keyinchalik bu so‘zning ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan.

Uyu + qu = uyuqu – uyqu

Hozirgi o‘zbek adbiy tilida bu so‘zni qadimgi uyqu shaklida yozish saqlangan, lekin talaffuzda so‘z oxiridagi -u unlisi -i unlisiga almashadi.

Uyqu – uyqi

18. Chun mening sha’nimda bu emas edikim, og‘a – ini va uruq- qayoshdin har necha izoylik voqe bo‘lsa, mendin mutanoffir bo‘lg‘aylar. (110 – bet)

{sha’n} – insonga, shaxsga tegishli bo‘lgan qadr – e’tibor.

Sinonimi: sharaf, shuhrat, obro‘.

{urug‘} – bir ota – onadan tarqalgan bir necha gurih uyushmasi, etnik birlik.

U + rug‘ = ot

19. Xisravshoh mo‘g‘ul ulusining bizg‘a qo‘shulg‘anini eshitib, heyli bepoy bo‘lib, chorasini topmay, kuyovi Yaqub Ayyubni elchilikka yuborib, qulluq va davlatxohlik izhor qilib, istido qilibturkim, agar ahd qilsalar, qulluqqa kelgumdur. (112 – bet)

{ulus} – el, xalq, xaloyiq.

U + lus = ot

Tarkibidan ko‘plik ma‘nosi anglashilib turadi.

{kuyov} – qizning eri (ota – onaga va uning qarindoshlariga nisbatan)

Ku + yov = ot

Bu ot qadimgi turkiy tildagi qizining eri ma‘nosini anglatgan va küd//küz otidan -ä qo‘shimchasi bilan yasalgan fe‘lga ish oti shaklini yasovchi -gü qo‘shimchasi qo‘shib hosil qilingan. Keyinchalik d//z undoshi -y undoshiga almashgan, so‘ngra so‘z oxiridagi -ü unlisi talaffuz qilinmay qo‘ygan, shuning oqibatida so‘z oxiridagi -g undoshi – v undoshiga almashgan, o‘zbek tilda -v undoshi ta’siri bilan -ä unlisi -â unlisiga almashgan, - o‘ unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan.

Küd//küz + ä = küzä + gü = küzägü – küyägü – küyäg – küyäv – küyâv – kuyâv.

{elchi} – bir davlatdan boshqa bir davlatda faoliyat ko‘rsatuvchi yuqori martabali rasmiy vakil.

El + chi = ot

{qulluq} – minnatdorlik ifodalovchi so‘z

Qul + luq = ot

Sinonimi: muborak, qutlug‘.

{ahd} – o‘ziga yoki o‘zgaga berilgan qat’iy so‘z, ishontirish so‘zi, qaror.

Sinonimlari: jazm, shartnoma, kelishuv, bitim, qaror.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X. Nazarova. “Boburnoma” tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. Toshkent. 1980.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. Toshkent. Yulduzcha, 1989.
3. H. Qudratullayev. “Boburning adabiy estetik qarashlari”. Toshkent. Fan, 1983.
4. N. Rahmonov. “O‘zbek tili tarixi”. Toshkent. 2009.
5. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. 2006 – 2008.